



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Tasdiqlayman"

**Buxoro davlat universiteti
rektori O.X. Xamidov**

2026 yil

**2-MUTAXASSISLIK BO'YICHA
DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

60610200 – Axborot xavfsizligi

Buxoro – 2026 yil

Annotatsiya

2-mutaxassislik bo'yicha kiruvchilar uchun 60610200 – Axborot xavfsizligi ta'lim yo'nalishining 2026/2027 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi 1- kursda o'tilgan majburiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:

I.I. Bakayev – Sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi kafedrası mudiri, t.f.f.d(PhD), dots.

Taqrizchilar:

H.I.Eshankulov – Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası professori, t.f.f.d(PhD).

T.R.Shafiyev– Sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi kafedrası professori, PhD, dotsent.

Dastur Buxoro davlat universitetining 2026 yil _____dagi _____ - sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

60610200 – Axborot xavfsizligi ta'lim yo'nalishi axborot tizimlarini himoya qilish nazariyasi va amaliyotini, kriptografik usullar va algoritmlarni, tarmoq xavfsizligi texnologiyalarini, kiberxavfsizlik siyosati va standartlarini hamda dasturiy vositalar xavfsizligini chuqur egallashni talab qiladi. Ushbu bilimlar majmuasi dasturning asosini tashkil qiladi.

Ta'lim yo'nalishi quyidagi sohalarni qamrab oladi: axborot-kommunikatsiya tizimlarida xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va bartaraf etish; kriptografik himoya vositalarini — simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarini, elektron raqamli imzo tizimlarini va xesh-funksiyalarni — amaliyotda qo'llash; tarmoq infratuzilmasida zaifliklarni tahlil qilish va ulardan himoyalash mexanizmlarini loyihalash; axborot xavfsizligi risklarini baholash va boshqarish; dasturiy vositalar xavfsizligini ta'minlash; kiberxavfsizlik sohasidagi milliy va xalqaro standartlar, kibermakonda huquq normalari va kiberetika qoidalariga rioya qilgan holda axborotni himoyalash.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi — davlat va nodavlat tashkilotlar, korxona va muassasalarda axborot xavfsizligi tizimlarini loyihalash va joriy etish; ilmiy-tadqiqot markazlari, loyihalash institutlari va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida axborot xavfsizligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish; axborot-kommunikatsiya tizimlarining xavfsizlik holatini doimiy monitoring qilish va tahdidlarga tezkor munosabat bildirish; zamonaviy kriptografik usullar va hisoblash texnologiyalaridan foydalangan holda himoya dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iborat.

60610200 – Axborot xavfsizligi ta'lim yo'nalishining asosini real axborot tizimlaridagi xavfsizlik muammolarini hal qilishda zamonaviy kriptografik, tarmoq va dasturiy himoya modellari hamda metodlarini qo'llash, ushbu modellar asosida xavfsizlik yechimlarini loyihalash texnologiyalarini o'rganish bilan bog'liq nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va professional kompetensiyalar tashkil etadi.

I. DASTURLASH ASOSLARI fani bo'yicha

Algoritm tushunchasi. Python dasturlash tiliga umumiy kirish. Algoritm turlari. Python dasturlash tilining afzalliklari. Interpretator va kompilyator tushunchalari. Python sintaksisining sodda va qulayligi. Zamonaviy dasturlashda Python'ning o'rni. Ma'lumot turlari va o'zgaruvchilar. ``int``, ``float``, ``str``, ``bool`` kabi asosiy ma'lumot turlari. O'zgaruvchilarni e'lon qilish, qiymat berish va o'zgartirish. Type casting va dinamik tipizatsiya. Shart operatorlari va sikllar. ``if``, ``else``, ``elif`` shart operatorlari. ``while`` va ``for`` sikllari. ``break`` va ``continue`` operatorlari. Amaliy masalalarda shart va takrorlash konstruksiyalarining o'rni. Funksiyalar va modul tuzish. ``def`` operatori yordamida funksiyalar yaratish. Parametrlar va qaytariladigan qiymatlar. Modullar tushunchasi. Kutubxonalar bilan ishlash va ulardan foydalanish. Ma'lumot tuzilmalari – List, Tuple, Set, Dictionary. Ro'yxatlar, kortejlar, to'plam va lug'atlar. CRUD amallari (``create``, ``read``, ``update``, ``delete``). Comprehension usullari orqali optimallashtirilgan kod yozish. Fayllar bilan ishlash. ``txt`` va ``csv`` formatdagi fayllarni o'qish va yozish. ``open()`` konstruksiyasi yordamida fayllar bilan ishlash. Fayllar oqimlari bilan ishlashda xavfsizlik tamoyillari. Tkinter – Python'da GUI (grafik interfeys) asoslari. Turtle – Python'da grafik chizish asoslari. NumPy kutubxonasi. Matritsalar ustida amallar. NumPy kutubxonasining statistik funksiyalari. ``Random`` modulining imkoniyatlari. Pandas – Series. Series obyektining yaratilishi, indekslash va ustunliklari. Asosiy metodlar va ularning qo'llanilish sohalari. Pandas – DataFrame. DataFrame tushunchasi. DataFrame yaratish. Satr va ustunlar bilan ishlash. Ma'lumotlarni qo'shish, o'chirish va yangilash. Ma'lumotlarni vizualizatsiya. Pandas va Matplotlib yordamida oddiy grafiklar yaratish (``line``, ``bar``, ``histogram``). Vizualizatsiyaning ahamiyati va natijalarni talqin qilish. OOP tushunchasi va Python dasturlash tilida qo'llanilishi. Python'da ma'lumot tuzilmalari va obyekt tushunchasi. Obyektga yo'naltirilgan dasturlashning asosiy g'oyalari: inkapsulyatsiya, vorislik va polimorfizm. Python tilining OOP'ga oid imkoniyatlari va boshqa dasturlash tillaridan farqi. Obyektning atributlari va metodlari. Python'da sinflar (class) tushunchasi. ``class`` kalit so'zi

yordamida sinf yaratish. Maydonlar (attributes) va metodlar (methods). Sinfning instansiyasi (obyekt) tushunchasi. Konstruktor va destruktorlar. `__init__()` metodi orqali konstruktor yaratish. Parametrli va parametrsiz konstruktorlar. `__del__()` metodi orqali obyektning hayot siklini boshqarish. Getter va Setter metodlari. Inkapsulyatsiya. `@property` dekoratori yordamida getter va setter metodlarini yaratish. OOP'da xavfsiz ma'lumot boshqaruvi. Python'da modifikatorlar. `public`, `protected`, `private` modifikatorlari. `_` va `__` belgilarining Python'da ishlatilishi. Inkapsulyatsiyaning amaliy qo'llanilishi. Statik metodlar va sinf metodlari. `@staticmethod` va `@classmethod` dekoratorlari. Oddiy metodlardan farqi. Sinf darajasidagi atribut va funksiyalarning amaliy qo'llanilishi. Vorislik (Inheritance). Oddiy vorislik, ko'p martalik vorislik. `super()` funksiyasi yordamida ota sinf konstruktoriga murojaat. Vorislikda modifikatorlardan foydalanish. Ko'p darajali va murakkab vorislik. Ko'p bosqichli vorislik (multilevel inheritance). MRO (Method Resolution Order) tushunchasi. Diamond muammosi va Python'dagi yechimlari. Ichma-ich joylashgan sinflar (Nested Classes). Sinf ichida sinf yaratish. Ichma-ich sinflarni nomlar fazosida ishlatish. Ularning amaliy qo'llanilishi. Polimorfizm. Bir xil nomdagi metodlarning turli sinflarda turlicha ishlashi. Overriding (qayta aniqlash) va Overloading (qayta yuklash) tushunchalari. Duck Typing tamoyili. Abstrakt sinflar va interfeyslar. `abc` moduli yordamida abstrakt sinflar yaratish. `@abstractmethod` dekoratori. Python'da interfeys tushunchasi. Kompozitsiya va agregatsiya. Obyektlar o'rtasidagi munosabatlar. "Has-A" tamoyili. Bir sinf obyektining boshqa sinf ichida ishlatilishi.

II. MA'LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR fani bo'yicha

Berilganlar strukturasi, mavhum ma'lumotlar turi, ma'lumotlar strukturasi ahamiyati. Algoritm nazariyasiga kirish. Algoritm formal ta'riflari. Algoritm nazariyasi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari. Berilganlarning sodda strukturalari. Stack. Navbat strukturasi. Stack ADT sifatida, POP va PUSH operatsiyasi. Navbat ADT sifatida, navbatdagi asosiy metodlar, chiziqli va aylana

navbat va ularning qo'llanilishi. Berilganlarning satr strukturasi. Satr ma'lumotlar tuzilmasi. Satr berilganlar strukturasi asosiy metodlari va algoritmlari. Massivlar. Massivlar bilan ishlash. Matritsa ma'lumotlar tuzilmasi va ular ustida bajariladigan amallar. Berilganlarning ro'yxat strukturasi. Bog'langan ro'yxatlar. Statik va dinamik ro'yxat tuzilishi, ro'yxatda asosiy metodlar, ADT sifatida bog'langan ro'yxat, dinamik amalga oshirish, tugunlarni kiritish va o'chirish. Rekursiya prinsipi. Rekursiya prinsipi, rekursiya va takrorlash, rekursiyaga misol: TOH va Fibonachchi seriyalari, rekursiya ilovalari. Daraxt ma'lumotlar strukturasi. Daraxtning asosiy tushunchalari. Ikkilik daraxt. Balanslangan daraxtlar: AVL balanslangan daraxtlar, balanslash algoritmi, The Huffman algoritmi, o'yin daraxti, B-daraxt.

Algoritm murakkabligini baholash. Big O tushunchasi. Saralash algoritmlarini murakkabligini baholash. Big O tushunchasi. Pufakchalar usulida tartiblash. Tanlash usulida tartiblash. Joylash usulida tartiblash. Qidiruv texnikasiga kirish. Ketma-ket qidiruv. Ikkilik qidiruv daraxti. Graf ma'lumotlar tuzilmasi. Graf algoritmlari. BFS algoritmi, Dijkstra algoritmi, Uorshall algoritmi, Kruskal va Round-Robin algoritmlari. Xeshlash masalalari. Xesh funksiyasi va xesh jadvallari, to'qnashuvni hal qilish texnikasi, turli qidiruv texnikasining samaradorligini taqqoslash.

III. Hisob(Calculus) fani bo'yicha

To'plam. To'plamlar ustida amallar, ularning xossalari. Haqiqiy sonlar. Ratsional sonlar to'plami va uning xossalari. Haqiqiy son tushunchasi (cheksiz o'nli kasrlar bo'yicha yoki kesim bo'yicha kiritilishi). Haqiqiy sonlar to'plami va uning xossalari. Haqiqiy sonlar ustida amallar. Sonli to'plamlarning chegaralari. Haqiqiy sonlar to'plamining to'laligi haqidagi teorema. Sonlar ketma-ketligi uchun limit nazariyasi. O'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar. Sonlar ketma-ketligining limiti. Yaqinlashuvchi ketmaketliklarning xossalari. Yaqinlashuvchi ketma-ketliklar ustida arifmetik amallar. Cheksiz katta miqdorlar. Cheksiz katta va cheksiz kichik miqdorlar 4 orasidagi bog'lanishlar. Aniqmas ifodalar. Monoton ketma ketliklar va

ularning limiti. Monoton ketma ketliklarning limiti haqidagi teremalarning tadbiqlari. Qisman ketma ketliklar. Bolzano Veyershtrass lemmasi. Koshi teoremasi. Ketma- ketlikning yuqori va quyi limitlari. Funksiya va uning limiti. Funksiya tushunchasi. Teskari funksiya. Elementar funksiyalar va ularning xossalari. Murakkab funksiya. Funksiyaning grafigi. Natural argumentli funksiyalar (sonli ketmaketliklar). Natural argumentli funksiya (sonlar ketma-ketligi) ning limiti. Limitning xossalari. Monoton ketma-ketliklarning limiti. Ichmaich joylashgan segmentlar prinsipi. Koshi teoremasi. Ixtiyoriy argumentli funksiya limiti ta'riflari. Funksiya limitining mavjudligi haqida teoremlar. Funksiyalarni solishtirish (" 0 ", " ∞ ", - belgilar). Funksiyaning uzluksizligi. Funksiya uzluksizligi ta'riflari. Uzluksiz funksiyalar ustida amallar. Murakkab funksiyaning uzluksizligi. Elementar funksiyalarning uzluksizligi. Uzluksiz funksiyalarning xossalari. Funksiyaning uzilishi, uzilishning turlari. Funksiyaning tekis uzluksizligi. Kantor teoremasi. Funksiyaning hosila va differensial. Funksiya hosilasining geometrik hamda mexanik ma'nolari. Hosila hisoblash qoidalari va formulalari. Funksiya differensiallanuvchiligi. Funksiya differensial. Taqribiy hisoblash formulasi. Yuqori tartibli hosila va differensiallar. Differensial hisobning asosiy teoremlari. Boshlang'ich funksiya, aniqmas integral tushunchalari. Integralning sodda xossalari, sodda qoidalari. Aniqmas integral jadvali. Integrallash usullari. Ratsional funksiyalarni integrallash. Trigonometrik va ba'zi irratsional funksiyalarni integrallash. Aniq integral. Aniq integral (Riman integrali) ta'riflari. Aniq integralning mavjudligi va integrallanuvchi funksiyalar sinfi. Integralning xossalari va uni hisoblash. Integralni taqribiy hisoblash formulalari. Aniq integralning geometriyaga, fizikaga, mexanikaga tatbiqlari. Sonli qatorlar. Sonli qatorlar tushunchasi, uning yaqinlashishi va uzoqlashishi. Musbat qatorlar va ularning yaqinlashish alomatlari. Ixtiyoriy hadli qatorlar va ular yaqinlashishining Leybnits, Dirixle va Abel alomatlari. Yaqinlashuvchi qatorlarning xossalari. Xosmas integrallar. Chegaralari cheksiz xosmas (birinchi tur) integrallar va ularning yaqinlashishi. Birinchi tur xosmas integrallarni hisoblash.. Umumiy hol. 5 Ko'p

o'zgaruvchili funksiyalar. R^m fazo va unda metrika tushunchasi. Ko'p o'zgaruvchili funksiya, uning karrali va takroriy limitlari. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning uzluksizligi va tekis uzluksizligi. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning xususiy hosilalari, uning differensiallanuvchiligi. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensialli. Ko'p o'zgaruvchili murakkab funksiyaning differensiallanuvchiligi. Yo'nalish bo'yicha hosila va gradiyent. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning yuqori tartibli hosilalari va differensiallari. Ikki o'zgaruvchili funksiya uchun aralash hosilalarning tengligi haqidagi teorema. Ko'p o'zgaruvchili funksiyalarning ekstremumlari. Oshkormas funksiya tushunchasi. Oshkormas funksiyaning mavjudligi haqidagi teorema va uning xususiy hosilalarini hisoblash. Funksional ketma-ketliklar va qatorlar. Funksional ketma-ketlik va qator tushunchasi, ularning yaqinlashishi va tekis yaqinlashishi. Funksional ketma-ketliklarda hamda funksional qatorlarda hadlab limitga o'tish, hadlab integrallash va differensiallash. Darajali qatorlar va ularning xossalari. Teylor qatori. Parametrga bog'liq integrallar. Limit funksiya, unga tekis va notekis yaqinlashish. Parametrga bog'liq xos integrallar, ularning parametr bo'yicha uzluksizligi. Parametrga bog'liq xos integrallarning funksional xossalari. Parametrga bog'liq xosmas integrallar va ularning tekis yaqinlashishi. Parametrga bog'liq xosmas integrallarning funksional xossalari. Beta funksiya va uning xossalari. Gamma funksiya va uning xossalari. Egri chiziqli integrallar. Birinchi tur egri chiziqli integrallar va ularni hisoblash. Ikkinchi tur egri chiziqli integrallar va ularni hisoblash. Karrali integrallar. Ikki karrali integral (Riman integrali) ta'riflari. Ikki karrali integralning mavjudligi va integrallanuvchi funksiyalar sinfi. Ikki karrali integralning xossalari. Ikki karrali integralni hisoblash. Grin formulasi. Grin formulasining tatbiqlari. Ikki karrali integralning geometriyaga, fizikaga, mexanikaga tatbiqlari. Sirt integrallari. Sirt va uning yuzasi tushunchalari. Birinchi tur sirt integrallari va ularni hisoblash. Ikkinchi tur sirt integrallari va ularni hisoblash. Fure qatorlari. Ba'zi muhim tushunchalar. Fure qatorlarining ta'ri. Dirixle integrali.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islomov B., Abdullayev O.X. Differensial tenglamalardan masalalar to'plami. Toshkent. 2012. 14
2. Saloxiddinov M.S., Nasriddinov G. Oddiy differensial tenglamalar. Toshkent. O'qituvchi. 1994.
3. Azlarov T. A., Mansurov X. T. Matematik analiz. I tom, T. 1994 y.
4. Azlarov T. A., Mansurov X. T. Matematik analiz. II tom, T. 1995 y.
- A. Sa'dullayev, G. Xudoyberganov, X- Mansurov, A. Borisov, T. Tuychiyev. Matematik analiz kursidan misol va masalalar tuplami. Toshkent, "O'zbekiston", 2010.
5. M.A. Bobojonova. "Dasturlash asoslari", darslik. Buxoro: "Buxoro determinanti" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023 y. – 376 b.
6. M.A. Bobojonova. Python dasturlash tili: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy MCHJ, Durdona nashriyoti, 2023. – 108 b.
7. U.T. Subxonqulov. Python dasturlash tili. – Buxoro: "Buxoro determinanti" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024 y. – 132 b. Kirillov V.V., Gromov G.Yu. Strukturizirovanny yazyk zaprosov (SQL). Uchebnoye posobiye. Sankt-Peterburgskiy GTU, 2018.
8. Allen K. Oracle PL/SQL. Per. s angl. – M.: Lori, 2017.
9. Astaxova I.F., Tolstobrov A.P., Melnikov V.M. SQL v primerax i zadachax; Ucheb. posobiye.— Mn.: Novoye znaniye, 2012., 176 s.
10. Gurvits G.A. Microsoft Access 2010. Razrabotka prilozheniy na realnom primere. — SPb.: BXV-Peterburg, 2010., 496 s.
11. Taxagxogxi Seyed, Vilyams Xyu E. Rukovodstvo po MySQL/Per. s angl. - M.: Izdatelstvo «Russkaya redaktsiya», 2017., 544 s.
12. Hakimov M.X., Gaynazarov S.M. Berilganlar bazasini bohsqarish tizimlari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: Fan va texnologiyalar, 2013, 648 b.
13. Ignatev N.A., Madraximov Sh.F. Sistemnoye programmirovaniye. Uchebnoye posobiye. - Tashkent, Natsionalniy Universitet Uzbekistana, 2006, 83 s.
14. Isroilov M.I. Hisoblash metodlari. I, II qism. Toshkent: O'qituvchi, 2003, 2008.
15. Aloyev R.D., Xudoyberganov M.O'. Hisoblash usullari kursidan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami. O'zMU. O'quv qo'llanma. 2008 y. 110b.
16. Samarskiy A.A., Gulin A.V. Chislennyye metody. -M., Nauka. 1989.
17. Kenneth Kuttler Elementary linear algebra 2012, Ventus Publishing Aps, ISBN 978-87-403-0018-5
18. David Cherney, Tom Denton and Andrew Waldron, Linear Algebra, 2013

19. Fuzhen Zhang LINEAR ALGEBRA 2009 15
20. Poskuryakov I.L. Sbornik zadach po lineynoy algebre. «Nauka», 2005 g.
21. Xojiyev J.X. Faynleyb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi, Toshkent, «O'zbekiston», 2001 y.
22. Kenneth H. Rosen, Discrete mathematics and its applications, 7-edition, The McGraw-Hill Companies, 2012
23. Yablonskiy S. V. Vvedeniye v diskretnuyu matematiku. – M.: Nauka, 1986.
24. Yunusov A.S. Matematik mantiq va algoritmlar nazariyasi elementlari, T., 2003.
25. Lavrov I. A., Maksimova L. L. Zadachi po teorii mnojestv, matematicheskoy logike i teorii algoritmov. M.: Fiz.-mat. literatura, 1995.
26. Tuxtasinov M., Diskret matematika va matematik mantik.- T., Universitet, 2005.
27. To'rayev X.T., Matematik mantik va diskret matematika.- T., O'qituvchi, 2003.
28. Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamalari. Toshkent. «O'zbekiston», 2002.
29. Tixonov A.N., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. Izd-vo MGU. 2004.
30. Bo'ronova G.Y. Ma'lumot tuzilmasi va algoritmlar tahlili. O'quv qo'llanma, Buxoro: Durdona nashriyoti, 2024 y.-140-b.
31. Avezov.A.A . Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar . O'quv qo'llanma . “Kamolot nashriyoti” 2023 , 120b.
32. N.S. Sayidova. Teoriya algoritmov. O'quv qo'llanma. Talabalar uchun. – Buxoro: «Durdona». 2020, -b.227.
33. Акхо, Альфред, В., Кхопкрофт, Джон, Ульман, Джеффри, Д. Структуры данных и алгоритмы.: Пер. с англ.: Уч. Пос. – М. Издательский дом «Вильямс», 2000. – 384 с.: ил. – Парал. Тит. англ.
34. Пышкин Е.В. Структуры данных и алгоритмы: реализация на C/C++. — СПб.: ФТК СПбГПУ, 2009.- 200 с., ил.
35. Овсянников, А. В. Алгоритмы и структуры данных. Минск : БГУ, 2015. – 124 с. : ил. – Библиогр.: с. 122
36. Домнин Л. Н. Элементы теории графов: учеб. Пособие / Л. Н. Домнин. – Пенза: Изд-во Пенз. Гос. Ун-та, 2007. – 144 с. 75 ил., 13 табл., библиогр 18 назв.

2-MUTAXASSISLIK BO'YICHA KIRISH SINOVLARI

BAHOLASH MEZONLARI

BAHOLASH MEZONLARI

2-mutaxassislikga kirish sinovlari yozma ish shaklida o'tkaziladi. Shundan har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning yozma ish javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13